


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

BD-5112100- 4.01

2016-yil «25» 08



TEXNOLOGIYA VA DIZAYN

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100 – mehnat ta'limi

Toshkent – 2016

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "33" 08 dagi "333"-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2016-yil "8" 06 dagi "3"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchi:

G'.Abduqodirov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

E.S.Qurbonov – Guliston davlat universiteti dotsenti, pedagogika, fanlari, nomzodi.

B.E.Xasanova – Yakkasaroy tumani 118 – umumta'lim maktabining direktori

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil "14" 04 dagi "10"-sonli bayonnomasi).

KIRISH

“Texnologiya va dizayn” fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur 5112100 – Mehnat ta'limi bo'yicha bakalavrlar tayyorlaydigan yo'nalishda talabalarga yog'ochning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlar, ularni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari qo'l va elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish hamda metallarning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlar, rejalash, ishlov berish, pardozlash ishlari qo'l hamda elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashina elementlari, yangi texnika, ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanishni o'rgatadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu fanning maqsadi – bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini o'z kasbining mohir ustasi qilib tarbiyalash, ularga yog'och va metallning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarni, ularni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari qo'l va elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanishni hamda mustaqil o'zbekiston kelajagi bo'lgan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Ushbu fanning vazifasi – talabalarga yog'och va metallarni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarning tuzilishini, ishlashini, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlarni, mashinalar elementlarini, texnologik xaritalarni tuzishni, dizayn talablari darajasidagi ro'zg'orbob va xaridorgir buyumlarni tayyorlashni, elektr bilan ishlovchi soddada uskuna va jihozlar tayyorlashni, uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallarini; mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilishni, o'lchash va taqqoslash texnologiyalarini, mehnatni ilmiy tashkil etishni o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Texnologiya va dizayn” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– o'quvchilar yog'ochning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarni egallash, ularni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish, xavfsizlik texnika qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, o'quvchilar metallarning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlar, rejalash, ishlov berish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l hamda elektr asboblarning

tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashina elementlari, yangi texnika, ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish, mehnat qonunchiligi hamda xavfsizlik texnika qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, o'quvchilar elektr montaj ishlarida ish o'rnini tashkil qilish; elektr o'tkazish simlarining turlari; elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolyatsiyalash ishlari; elektr asboblari; elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullari, pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplama yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari; yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari; xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash to'g'risida, O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari va tarkibi, ularning bir-biriga bog'liqligi; texnologik jarayonlar, yangi texnika, ilg'or texnologiyalar; mehnat predmetiga mexanik ta'sir etish orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar; ishlab chiqarishdagi kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar; fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli; ishlab chiqarish texnologiyasi; ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak*;

– dizayn talablari darajasidagi ro'zg'orbob va xaridorgir buyumlarni tayyorlashni, ro'zg'orbob hamda xaridorgir, dizayn talablari darajasidagi buyumlarni, bitta xonani yoritish zanjiri sxemasini tuzish; maishiy elektr asboblarni elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'ligiga ta'siri; elektr energiyasini tejimli ishlatish usullari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rnini tashkil qilish; kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullari; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlashni, taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyalari; kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlari, tartibi va standartlari; mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi; olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari; mehnatni unumli tashkil etish, tejimkorlik va ishbilarmonlik asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish; tabiatni muhofaza qilish; o'quvchilar yog'ochga va metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning

bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari; hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligida foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholash; kompozitsion yaxlitlik; xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turlar; xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini *bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi kerak*;

– xalq hunarmandchiligining etnik, tarixiy, mahalliy, geografik xususiyatlari, tadbirkorlik, ijodkorlik asoslari; yog'ochga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari, metalga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi sohalari; metallarga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari, elektrotexnik hamda elektron uskunalarni ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha, uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish; qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar, sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini tayyorlash bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulotlarini tayyorlash ish usullariga oid bilim malaka va *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak*.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviy ketma-ketligi

Texnologiya va dizayn fanini o'rganish “Oliy matematika asoslari”, “Fizika”, “Elektrotexnika, elektronika va elektronika”, “Materialshunoslik”, “Mehnat ta'limi praktikumi”, “Materiallarni kesib ishlash, asboblarni va stanoklar”, “Texnik ijodkorlik va dizayn” va “Xalq hunarmandchiligi” kabi fanlari boyicha olingan fundamental bilimlariga asoslangan.

Fanning ta'limdagi o'rni

Mazkur fanni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi darslari bilan bevosita aloqada bo'lib, O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari va zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari, texnologik jarayonlar, yangi texnika, ilg'or texnologiyalar, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli, ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlyog'ochga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari, metalga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi sohalari hamda mahsulotlarini tayyorlash usullari haqida o'quvchilarga bilim berilsa dastur mazmuniga mos keladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbik qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'qitishda plakatlari, chizmalar, namunalar, yo'riqnomalar texnologik xaritalari, ko'rgazmali texnik vositalardan (kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va elektron zersiyalardan, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, bilim ko'nikma va malakalarni hosil qilish ko'zda tutiladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy (leksiya) mashg'ulotlari mazmuni

Kirish. Texnologiya va dizayn fanining maqsad va vazifasi. O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari. Ishlab chiqarishda yangi texnika va ilg'or texnologiyalar. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari. Ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar.

Yog'och turlari va uning xususiyatlari. Yog'ochlarni ishlov berishda rejalash. Yog'och materiallarini yo'nish va yo'nish usullari, Yog'och materiallarini arralash. Yog'och materiallarini teshish. Tayyor buyumlarni pardozlash. Yog'och materiallariga ishlov beradigan qo'l va elektr asboblarning tuzilishi va ishlash prinsipi. Yog'och materiallariga ishlov beruvchi dastgohlar hamda elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar. Mashina, mexanizm elementlari va turlari. Yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari. Texnologik xaritalari, ularni tuzish va foydalanish.

Metall turlari va ularning xususiyatlari. Metallarga ishlov berishda rejalash. Metallarga ishlov berish texnologiyasi. Tayyor buyumlarni pardozlash. Metallarga ishlov berishda qo'llaniladigan qo'l va elektr asboblarning tuzilishi va ishlash prinsipi. Metallarga ishlov berishda qo'llaniladigan dastgohlar hamda elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar. Mashina, mexanizm elementlari va turlari. Texnologik xaritalari, ularni tuzish va foydalanish.

Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari. Yurtimiz me'morchiligi tarixi. Xona intereri hamda jihozlanish dizayni zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari. Xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri. Xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik eskizlarini tayyorlash texnologiyasi.

Mehnatni muxofaza qilish qonuniyatlari asoslari. Mehnatni muxofaza qilish qonunlari va nizomlari. Texnika havfsizlik asoslari. Ishlab chiqarishda sog'lom va havfsiz mehnat qilish sharoitini yaratish. Instruktsiyalar bilan tanishish turlari, xodimlarning asosiy mehnat xuquq va burchlari. Ishlab chiqarish sanoatida sanitariya-gigiyena talablari.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish boyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlariga tavsiya etiladigan mavzular

1. Xalq hunarmandchiligida foydalanilayotgan nodir materiallar.
2. Xalq hunarmandchiligining etnik, tarixiy, mahalliy, geografik xususiyatlari.
3. Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi.
4. O'Ichash va taqqoslash texnologiyalari standartlari.
5. Kompozitsiya va kompozitsion yaxlitlik.
6. Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari.
7. Hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar.
8. Xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turlari.
9. Mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi.
10. Mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari.
11. O'quvchilar yog'ochga va metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyalari.
12. Yog'ochga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi sohalari
13. Metalga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi sohalari
14. Metallarga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari.
15. Uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari.
16. Suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash.
17. Dizayn talablari darajasidagi ro'zg'orbob va xaridorgir buyumlarni tayyorlash.
18. Uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari va ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish boyicha kafedra professor o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda fanning asosiy ma'ruza mavzulari boyicha olgan bilim ko'nikmalarni va masalalarni echish orqali yanada boyitadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- tarqatma materiallar boyicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish.
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash.
- maxsus adabiyotlar boyicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Oyish va kesish usullari
2. Burama mixlar tavsifi
3. Oshiq- moshiqalar va ularning ishlatilishi
4. Japs randa va uning ishlatilish soxalari
5. Yelektr parmalash mashinasi (mexanizmi) tuzilishi
6. Birikmalar va ularning vazifasi
7. Yog'ochga kuydirib ishlov berish turlari
8. Nazorat – ulchov asboblari
9. Yoqochga ishlov berish dastgoxi xaqida tushuncha
10. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish
11. Jo'va tayyorlashning texnologik xaritasini tuzish.
12. Daraxtlarning texnik va mexanik afzalliklari
13. Yog'ochlarga oyish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi
14. O'lchov asboblari va ulardan foydalanish
15. Metall sirtlariga ishlov berish turlari
16. List metallarni qirqish usullari
17. Varaqa tunukalarni biriktirish usullari
18. Parchinlash jarayoni va parchinlashda ishlatiladigan asbob va moslamalar
19. Detallarni sirtqi yuzasini jilvirlash va jilolash
20. Xalq xunarmandchilik turlari, ularning tarixi
21. Naqsh va uning turlari
22. Xunarmandchilikda ustoz – shogird tizimi

Kurs ishi boyicha uslubiy ko'rsatmalar

Kurs ishini bajarishdan maqsad talabalarning olgan bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat.

Kurs ishini bajarish o'quv rejasida ko'zda tutilgan va har bir talaba uchun zaruriydir. Talaba kurs ishini bajarish natijasida o'zining tadqiqot olib edagog imkoniyatini ko'rsata bilish kerak. Shu maqsadda bo'lg'usi o'qituvchilar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur.

a) mavzu boyicha minimal darajadagi muayyan adabiyotlarni o'rganish va zaruriy ma'lumotlarni qayd qila olish.

b) zamonaviy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida o'rganilayotgan masalaning holatini izchil bayon qilish.

v) agar mavzu uchun zaruriy bo'lsa, turli tipdagi ta'lim muassasalaridagi pedagogic tajribalarni yig'ish, tahlil qilish va umumlashtirish.

g) tajriba-sinov ishini o'tkazish, qo'lga kiritilgan materiallarni qayta ishlash, uni tahlil qilish, tizimga solish, izohlash va zaruriy xulosalarni chiqarish.

“Texnologiya va dizayn” fani boyicha o'quv rejasigi kiritilgan kurs ishlari mavzulari.

1. Duradgorchilikda ishlatiladigan yog'och turlari, tuzilishi va xossalarini o'qitish metodikasi
2. Yog'och materiallarni arralash, arra turlari mavzusini o'qitish texnologiyasi

3. Yog'och materiallarni randalash, randa turlari mavzusini o'qitish texnologiyasi
4. Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikmalar tayyorlash texnologiyasi
5. Tokarlik dastgohida yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi
6. Tokarlik dastgohlarini ishga sozlash texnologiyasi
7. Yog'och materiallarga randalash stanoklarida ishlov berish texnologiyasi
8. Randalash dastgohlarini ishga sozlash texnologiyasi
9. O'quv ustaxonasini jihozlash texnologiyasi
10. Yupqa varaqa tunka materiallar bilan ishlash texnologiyasi
11. Metallarni qaychi va metall arralovchi arrada qirqish usullari
12. Parmalash dastgohini tuzilishi va ishlash prinsiplari
13. Plashka va metchik yordamida tashqi hamda ichki rezbalarni ochish texnologiyasi
14. Mashinalarning asosiy qismlari, dvigatel uzatish mexanizmlari mavzusini o'qitish texnologiyasi
15. Vintli mexanizmlar va ularning turlari
16. Jilvirlash va laklash texnologiyasi
17. Elektr o'tkazish simlari
18. Kasb turlari va kasbkorlik
19. Xalq xunarmandchiligini o'ziga xos xususiyatlari
20. Sanoatda dizanning o'ziga xos xususiyatlari
21. Parma turlari va ishlatilish sohalari, parmalashning fizik xossalari
22. Tayyor detallarni pardoqlash texnologiyasi

Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Didaktik vositalar

Didaktik vositalar: yog'och va metalga ishlov berishda ishlatiladigan elektr asboblari, mexanik ishlov berish jihozlari, texnologik jarayon kartalari, tarqatma materiallar.

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. H.A.Муслимов, Ш.С.Шарипов, М.Қодиров. “Техник ижодкорлик ва дизайн”. - Т.: “ТДПУ”, 2010.
2. А.С.Искандаров. «Материалларни кесиб ишлаш, кесувчи асбоблар ва станоклар.-Т.: “Фан ва технология” 2004.
3. Р.С.Шермухамедов, С.С.Яхяев, А.Э.Пармонов. Чилангарликдан амалий ишлар.-Т.: «Иктисод-молия» 2007.
4. G'.M.Abduqodirov. Kasb ta'limi praktikumi.-Т.: “Sharq” 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Н.И.Макиенко. Слесарликдан амалий ишлар.-Т.: «Ўқитувчи» 1992.
2. В.А.Мирбобоев. “Конструкциян материаллар технологияси”- Т.: «Ўқитувчи» 2004
3. К.В.Usmonov “Metall kesish asoslari” Т.: «O'qituvchi» 2004 у.

Elektron ta'lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped
6. www. legprominfo.ru

